

Bibiaysha Kudaybergenova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Folklor va etnografiya" kafedrası dotsenti
E-mail: kudaybergenova1963@gmail.com*

QORAQALPOQ FOLKLOR SAN'ATI VA MADANIYATINING SHAKLLANISH TARIXI

***Annotatsiya.** Maqolada Qoraqalpoq folklor san'ati va madaniyatining shakllanish tarixi, milliy qadriyatlar va an'analarning zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rni tadqiq etilgan. Xalqning ko'chmanchi turmush tarzi, urf-odatları, qo'l san'ati va folklor merosining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Qoraqalpoq folklori, milliy madaniyat, tarixiy meros, urf-odatlar, ta'lim-tarbiya.*

HISTORY OF THE FORMATION OF KARAKALPAK FOLKLORE ART AND CULTURE

***Abstract.** The article examines the formation history of Karakalpak folklore art and culture, the role of national values and traditions in the modern education system. The nomadic lifestyle of the people, customs, handicrafts and the importance of folklore heritage in youth education are highlighted.*

***Keywords:** Karakalpak folklore, national culture, historical heritage, customs, education.*

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining boy tarixi va madaniyatiga ega bo'lib, jahon sivilizatsiyasida alohida o'rin egallaydi. Umuman olganda, qoraqalpoq xalqlari urug'-qabila shaklida yashagan, bunday qabilalar yuzdan ortiq bo'lgan holda, o'zining betakror qadriyatlariga tayanib, o'zligini anglashga intilgan xalqdir. Qoraqalpoq xalqining ijtimoiy-tarixiy jarayonda rivojlanishi tahlilidan ma'lum bo'lishicha, o'zligini anglash va axloqiy bilimlari va ota-bobolaridan meros bo'lib qolgan udumlari hamda urf-odatlarida shakllangan normalar orqali

boshqarilib kelgan. Qoraqalpoq xalqi o'z san'atining kuy-qo'shiqlari, jarangdor ovozlari bilan dunyo taniydigan darajaga kelgan. Yangi O'zbekistonning hozirgi rivojlanishi to'plagan tajribani har tomonlama o'rganishni keyingi taraqqiyot uchun, ijobiy va ibratli foydalanishni taqozo etadilar. Shu jihatdan, Qoraqalpog'iston madaniy aloqalari tarixi katta ilmiy ahamiyatga egaligi bilan dolzarb hisoblanadi.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining taqdiri yaqinligi, o'zaro munosabatlari, iqlim sharoiti, madaniy an'analari tarixiy jarayonlarning ta'sirida bir-biriga yaqin bo'lganligi hammamizga ma'lum. O'zbekiston Respublikasini qaysi hududi, yoki sohasini rivojlantirish borasida qandaydir yangilik joriy qilinsa, eng avvalo, Qoraqalpog'istondan boshlanadi. Muhtaram Prezidentimizning Qoraqalpog'iston Respublikasiga bo'lgan alohida e'tiborini har bir so'zida va amaldagi islohotlarda chuqur his qilib turamiz. Masalan, Prezident Sh.Mirziyoyev qilgan ilk safarini ham aynan Qoraqalpog'iston Respublikasidan boshlaganlar, – deydi professor Qahramon Quranbayev.

Qoraqalpoq xalqi, O'rta Osiyo xalqlarining ichida eng qadimiylaridan biri bo'lib, mifologiya, etnik an'analari va milliy musiqiy madaniyatiga ega xalqdir. Uning rivojlanish tarixiy genezisiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, dastlab ular urug'-qabila davrini boshidan kechirib, har bir qabila o'zining oqsoqollarini saylab olgan holda, qabila a'zolari esa unga to'liq itoat etganlar. Shu sababdan qabila a'zolarining shaxsiy va ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, urf-odat, marosimchilik, nikoh va diniy marosimlardan iborat barcha muammolarni "Odat" qoidalari asosida bajarilgan. Qoraqalpoq xalqlari qadimiy xalqlardan bo'lib, dastlab urug'-qabila shaklida yashab kelgan. Shu bois, milliylik millatning tarixi, qadriyatlari, an'analari, madaniyati, yashash tarzi yaqqol namoyon bo'lib, millatning yutuq va ijobiy tajribalarini o'rganish, ularni o'zlashtirish o'z milliyligini boyitish va rivojlantirishga katta ahamiyat kasb etadilar. Qoraqalpoq xalqining paydo bo'lish tarixi qanchalik uzoqqa borib taqalsa, uning milliy an'analari, urf-odatlari, marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega. Darhaqiqat, an'analari urf-odat, marosim va bayramlar xalqning, millatning ma'naviyati,

qadriyatlarning ajralmas qismidir. Chunki marosimlar har bir xalqning milliy qiyofasi va o'ziga xosligini ko'rsatadigan belgilaridan biridir. Qoraqalpoq xalqi o'zining urf-odatini, tarixini, san'ati va madaniyatini, bilimini, sevgi va muhabbatini, orzu-istaklarini shu davrga qadar namoyon etib kelmoqdalar. Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyati, kelajagini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, milliy va hayotiy qadriyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qoraqalpoq xalqi ham o'zining boy tarixi va bir-biridan go'zal urf-odatlari, tili san'ati madaniyati bilan o'z o'rnini va obro'siga ega millatdir. Ularning hayot tarzi, urf-odatlari, dasturlari va xulq-atvorlari o'zgachaligi ko'chmanchi qoraqalpoq xalqi o'zining asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan o'ziga xos badiiy boyligini shakllantirgan. Bu xalq ota-bobolarining makon bosgan yerlarini kezib, ko'chib-ko'nganligiga qaramasdan, haqiqattan boy va takrorlanmaydigan o'zining tili va badiiy san'atini saqlab kelgan. Xalq o'zining orzu-umidlarini va qayg'ularini yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarini, o'z vatanini himoya qila oladigan jonkuyar yigit-qizlarining ertakdagidek qudratli botirligini doston va poeziyalarda, cheksiz qir-adirlarda jirlab, chiroyli va jo'shqin ovozlarda qo'shiqlar, o'yinlar, urf-odat marosimlar bilan an'anaga aylanib, hayot bilan birga zamonaviy tus olib kelgan. Ularning turmush tarzida chorvachilik bilan shug'ullanib, qayerga ketishsa, o'zlari bilan suruv-suruv mollarini oldiga solib haydab ketgan. Xuddi shu hayot tarzini san'at va an'alarida ham aks ettirgan. Qoraqalpoq ayol-qizlari 7-8 yoshlaridan qo'llariga igna-ip olib kashtachilik va tikuvchilik bilan shug'ullanib kelgan.

Bir-biridan go'zal va takrorlanmas san'at asarlarini yaratgan, qizlarimizning tikkan "ko'k ko'ynagi" turli xalqlar va Yevropa mamlakatlariga ham tarqalganlar. Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida I.V.Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyida saqlanib kelmoqdalar. Mustabid tuzim davrida o'z tarixini, an'alarini, madaniyatini, urf-odat qadriyatlarini o'rganishdan mahrum edilar. Milliy istiqlol mafkurasi asrlar davomida shakllangan ma'naviyatimiz, urf-odat an'alar va qadriyatlarni tiklash imkoniyati yaratildi. Bu milliy qadriyatlar ham millatning tarixi, yashash tarzi, milliy mentaliteti, rasm-rusumlari, urf-odatlar diniy

e'tiqodini o'z ichiga olar ekan, boshqa xalqlarnikiga o'xshamaydigan urf-odat, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analar bilan tavsiflash hozirgi davr uchun ham katta ahamiyatga egadir.

Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning olib borayotgan siyosatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, eng avvalo, boy tarixiy-ma'naviy meros, milliy qadriyat, urf-odat va an'analar asosida milliy o'zligini anglash, milliy g'urur-iftixori yuksalgan, umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari asosida dunyoqarashi shakllangan barkamol avlodni tarbiyalashni ko'zda tutganlar.

Shu sababli, O'zbekistondagi barcha o'zgarishlarning negizi hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimida tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda Yangi O'zbekistonimizni yanada rivojlantirishda, ta'lim-tarbiya sohasi, shubhasiz, ular orasida alohida ahamiyatga ega. Chunki xalqimizning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog'liqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qoraqalpoq miliy an'analari urf-odat va marosimlari o'sib borayotgan yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Qoraqalpoq folklor san'ati, madaniyatining shakllanish tarixi va nomoddiy merosi millatning o'ziga xosligini ifodalab, uning kelib chiqish tarixi, turmush tarzi, jamiyat va insonlar o'rtasidagi umuminsoniy fazilatlarni o'z ichiga olgan holda yetishib kelayotgan har bir farzand o'z tarixidan va urf-odat marosimlaridan faxrlanib kelgusi avlodga yetkazish bilan birga ularni qadrlash, avaylab asrash va boyitish yo'lidan bormog'i lozim. Qoraqalpoq folklor san'ati va madaniyati kadrlarni tarbiyalashda unumli foydalanish ta'lim-tarbiyaning ta'sirini oshirishda yetakchi omillardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 son Farmoni.

2. Mirziyoev Sh. *Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.* – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Qurbanova U., Kudaybergenova B., Qobilov N. *Yakkaxon qo'shiqchilik.* – Toshkent: Barkamol fayz media, 2014. – 180 b.
4. Ayymbetov Q. *Xalq danaligi'yi.* – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1988. – 149 b.
5. *Qaraqalpaq folklori. Ko'p jildli.* – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1988. – 409 b.
6. Kudaydergenova B. *Yakkaxon qo'shiqchilik.* – Toshkent: Barkamol fayz media, 2023. – 180 b.